



DEPUTAT VA YOSHLAR

2019 yilning 27 sentabr kunida tasdiqlangan Mirzo Ulug'bek tumanidagi ta'lim muassasalarida **“Deputat va yoshlar”** mavzusida davra suhbatlarini o'tkazish rejasiga muvofiq, 13-Bahor saylov okrugi deputati **Xalikulova Go'zal Erkinovna** 241-maktabning yuqori sinf o'quvchilari bilan **“Sog'lom jamiyatda xalq farovon, inson azizdir!”** shiori ostida uchrashuv o'tkazdi.



Uchrashuvda deputat Go'zal Xalikulova mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, har bir sohadagi rivojlanish tinchligimiz va barqarorligimiz bilan bog'liqligi, yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan keng va to'g'ri foydalanish, o'qish va jamoat ishlarida namunali bo'lish kabi masalalarda o'quvchilar bilan qizg'in suhbat olib bordi.



Uchrashuv chog'ida deputat bilan maktabga tashrif buyurgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining bir qator iste'dodli magistrantlari turli viktorina o'yinlari, siyosiy ongini, mutolaa madaniyatini oshirishga bag'ishlangan savollar, qiziqarli treninglar bilan o'quvchi-yoshlarni sinovdan o'tkazishdi.

Tadbirda faol ishtirok etgan o'quvchilarga badiiy kitoblar va turli esdalik sovg'alari taqdim qilindi.

Uchrashuv so'nggida magistrant talabalar ijrosida ona Vatanimizni madh etuvchi, buyuk mutaffakkir olimlarimizni sharaflovchi she'r va go'zal qo'shiqlar ijro etildi.

“Deputat va yoshlar” mavzusidagi mazkur uchrashuv maktab ma'muriyati, o'quvchi va talaba yoshlarda katta taassurot

qoldirdi.

Dostonbek RAHMATULLAYEV
0'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti matbuot xizmati kotibi